

**VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA TAMOYILLARI***G'oyipova Mo'tabar Ergashevna**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali dotsenti**Xo'jaxonov Shoxruzxon Idrisxo'ja o'g'li**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali mustaqil tadqiqotchisi**Avliyoqulov Murodjon Turg'un o'g'li**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali mustaqil tadqiqotchisi*

Annatsiya. Ushbu maqolada chorvachilik, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda veterinariya sohasining o'rni va soha mutaxassisleri ishtirokida chorva mollarining sog'ligini saqlash, maqbul sharoitlarni ta'minlash, ularni to'g'ri parvarish qilish, yuqumli va invazion kasalliklardan himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlaridan foydalanish masalalari yoritib berilgan.

Аннотация В данной статье обсуждаются животноводство и роль ветеринарии в развитии сельского хозяйства и участие специалистов в области сохранения здоровья скота, обеспечения оптимальных условий, правильного ухода за ним, защиты от инфекционных и инвазионных болезней. в данной статье разъясняются вопросы применения комплексных мер.

Annotation. In this article, animal husbandry and the role of the veterinary field in the development of agriculture and the participation of experts in the field of maintaining the health of livestock, providing optimal conditions, their proper care, and protection from infectious and invasive diseases are discussed in this article. issues of using complex measures are explained.

Kalit so'zlar: chorva, yaylov, tuproq, ekologik, veterinariya, infeksiya, invazion, hayvonlar, Covid-19, epizootik, kasallik, ozuqa, qo'zg'atuvchi, vaktsina, antigelmint.

Ключевые слова: скот, пастбище, почва, экологический, ветеринарный, инфекционный, инвазия, животные, Covid-19, эпизоотия, болезнь, корм, возбудитель, вакцина, антигельминт.

Key words: livestock, pasture, soil, environmental, veterinary, infectious, invasion, animals, Covid-19, epizootic, disease, feed, pathogen, vaccine, anthelminth.

Kirish. O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirishning dolzarb muammolari soha mutaxassislarining doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Sohaning rivojlanish tendensiyasi va uning ijobiy o‘shish dinamikasi sohada o‘shish va intilishning ko‘pligini bildiradi. Chorvachilikning ekologik muammolarini hal qilish o‘ta muhim masalalardan biri sanaladi. Respublikamizning ayrim viloyatlaridagi landshaftlarda chorva uchun mo‘ljallangan tabiiy yaylovlarni sug‘orish yoki tuprog‘i sho‘r yerlarni tuzdan, yovvoyi o‘tlardan tozalash va foydalanish borasida qator muammolar mavjud. Bunday muammolarini bartaraf etish, cho‘l yaylovlarni yaroqli holga keltirish uchun ma‘lum darajada sarf-xarajatlarni talab etadi. Buning uchun muammolarning tub ildizlarini aniqlash, muammo yechimiga ilmiy yondoshuv talab etiladi. Yaylovlarning unumdorligini oshirish chorvachilikni rivojlantirishning muhim omili ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak pirovard natijada chorva mollari bosh sonining ko‘payishi, mahsuldorligini oshishi, ularning o‘shish va rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Insonlarning kundalik ehtiyojiga aylangan chorvachilik mahsulotlari -go‘sh va sutga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, ularning tannarxini pasaytirish, olinadigan daromadni ko‘paytirish muhim masala ekanligi bugungi bozor iqtisodiyoti yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Qishloq xo‘jaligi rivojlangan boshqa davlatlar duch keladigan muammolar O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmaydi. Bunday muammolarni bartaraf etish, rivojlangan qishloq xo‘jaligi bilan har qanday boshqa mamlakatlar kabi, turli xil muammolarga duch keladi. Ammo biz bu sohadagi muammolarni bartaraf etib, chorvachilikni rivojlantirish uchun birinchi o‘rinda har bir shaxsning kundalik iste‘moli uchun rentabellikni to‘g‘ri olib borishimiz lozim. Sifatli mahsulotlarga ehtiyoj talabi mavjud bo‘lgandagina ushbu mahsulot ishlab chiqaradigan faoliyat sohasini rivojlantirish mumkin. Jumladan, aholining yillik o‘shishiga qarab iste‘mol uchun sifatli sut va sut mahsulotlari, yangi go‘sh, go‘sh mahsulotlari hamda muzlatilgan go‘sh mahsulotlariga, tuxumga talab ortadi. Demak, aholi talabidan kelib chiqib biz yaqin ikki yoki besh yillik rejani emas balki, yurtimiz kelajagini 100-200 yilligini nazarda tutib, istiqbolli rivojlantirishni rejalashtirishimiz kerak.

Aholi iste‘moli uchun sifatli mahsulotlarni ko‘paytirish va yetkazib berish uchun har sohada mutaxassislarga murojaat qilamiz. Ayniqsa, mahsulot olinadigan hayvonlarning sog‘ligini saqlash ma‘suliyati veterinariya vrachlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Iste‘molchining sog‘ligini saqlash hayvon mahsulotlarining sifat ko‘rsatgichlariga bog‘liqdir. Chunki, insonlar va mahsuldor hayvonlar uchun umumiy bo‘lgan kasalliklar mavjud bo‘lib, bunday kasalliklar o‘ta xavfli va og‘ir holatlarni keltirib chiqaradi. Bularga infeksiya va invazion kasalliklarning bir qancha turlari mavjud. Barchamizga ma‘lumki, hozirgi kunda butun dunyoga tarqalgan Covid-19 virusining insoniyatga og‘ir va fojiali holatlarni keltirib chiqarmoqda. Olimlarning izlanishlari natijasida bu virusning birgina turi bo‘libgina qolmay balki 7 va undan ortiq turga ega ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Bundan tashqari virusning inson organizmiga kirib mutantlashib yangi bir turni hosil qilishini aniqlashdi.

Chorvachilikda sohasida tadbirkor fermer xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida boqiladigan mahsuldor hayvonlarning egalari qaramog‘idagi hayvonlarni umumiy kasalliklardan himoya qilishda veterinariya tibbiyotining rolini tushunishga va bu mutaxassislariga murojaat qilishga undaydi. Veterinariya mutaxassislarining rejali tadbirlari va maslahatlari asosida hayvonlarni sog‘ligini saqlash, to‘g‘ri boqish, parvarish qilish uchun optimal sharoit yaratilishi, infeksiyon va invazion kasalliklarning oldini olish hamda profilaktika qilish, kasallanish uchoqlari kuzatilsa ularni bartaraf etish, davolash hamda boshqa bir qancha talablari mavjud. Agar bu talablar bajarilsa, nafaqat sporadik hayvon kasalliklarining soni kamayar edi, balki, turli epizootik kasalliklarning eng muhim sabablari bartaraf etiladi.

Hayvonlarni yuqumli va invazion kasalliklardan himoya qilish ularning qaysi epizootologik guruhga mansubligiga bog‘liq. Bu ikkala toifadagi kasalliklar guruhidan tabiiy ravishda patogenlarni yuqtirmaslik uchun hayvonlarni to‘g‘ri parvarish qilish, yashash sharoitlarini (xona havosi, tushamalar, oziqalarning) sanitariya-gigienik jihatdan tozaligi nazorati yo‘lga qo‘yish lozim. Ularni turli xil to‘yimli oziqalar bilan oziqlantirish esa hayvonlar organizmining ichki immun sistemasining mustahkamligini ta‘minlaydi. Yil fasllari iqlimining o‘zgarishiga qarab, kasallik qo‘zg‘atuvchilarining patogenlik darajasini tahlil qilgan holda bahor va kuz fasllarida barcha yoshdagi hayvonlarni infeksiyon kasalliklarga qarshi vaksinalar va invazion kasalliklarga qarshi antigelmint vositalari qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Д.А., Дадаев С.Д., Акрамова Ф.Д., Сапаров К.А. Гелминты жвачных животных Узбекистана. -Ташкент: Фан, 2015.
2. Агринский Н.И. Насекомые и клещи, вредящие сельскохозяйственным животным. – М., 1962. – 288 с.
3. Голованов В.И. О распространении онхотсеркозов крупного рогатого скота в Узбекистане // Природ. Очаговост болез. и вопр. паразитол. живот., 1972. Т. 6. – № 2. – С. 71-72.
4. Дадаев С. Гелминты позвоночных подотряда Руминантиа Ссополи, 1777 фауны Узбекистана: автореф.дисс.. докт. биол.наук. – Ташкент, 1997. – 54 с.